



MEHNAT QONUNCHILIGIDA XIZMAT TEKSHIRUV O'TKAZISH TARTIBI
VA HUQUQIY AHAMIYATI

Toshkent viloyatri yuridik texnikum o'quvchisi
Sotiboldiyeva Marjona Faxriddin qizi
93-365-40-82

Annotatsiya: mazkur maqolada mehnat qonunchiligidagi mehnat intizomini buzgan xodimlarga nisbatan xizmat tekshiruv o'tkazish tartibi va huquqiy ahamiyati haqidagi ma'lumotlar amaldagi yangi Mehnat kodeksida belgilangan tartib tamoyillar va shu mavzu bo'yicha qonun va normativ hujjatlar misolida atroflicha tahlil qilingan.

Annotatsiya: V dannoy state podrobno analiziruyutsya svedeniya o poryadke i pravovom znachenii provedeniya slujebnoy proverki v otnoshenii rabotnikov, narushivshix trudovuyu dissiplinu v trudovom zakonodatelstve, s ispolzovaniem prinsipov protsedury, ustanovленных в действующем новом Трудовом кодексе, и примеров законов и законов. нормативные документы по этой теме.

Annotation: In this article, the information about the procedure and legal significance of conducting a service inspection against employees who violated labor discipline in the labor legislation is analyzed in detail using the principles of the procedure established in the current new *Labor Code* and the examples of laws and regulatory documents on this topic.

Kalit so'zlar: xizmat tekshiruv, intizomiy qilmay, yetkazilgan zarar.

Klyuchevыe slova: servisnaya proverka, dissiplinarnыe vzyskaniya, vozmeщение ищерба.

Keywords: service inspection, disciplinary action, damages.

Xizmat tekshiruv xodim tomonidan intizomiy qilmish sodir etilganligi faktini, uning sodir etilishida xodimning aybini, xodim tomonidan intizomiy qilmish sodir etilishiga imkon bergan sabablar va shart-sharoitlarni, ish beruvchiga yetkazilishi mumkin bo'lgan moddiy zararning xususiyati va miqdorini aniqlash maqsadida amalga oshiriladigan tekshirishdir.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2022-yil 23-iyundagi 137-um-son buryg'i ishlab chiqilgan bo'lib. "Adliya vazirligi tizimida xodimlarni samarali boshqarish hamda ularni tanlov asosida tanlab olishning zamonaviy tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari haqida"gi buyrug'i bo'yicha.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2020-yil 24-martdagи 68-um-son "Adliya organlari va muassasalarida kadrlar siyosatini belgilash va kadrlar bilan ishslash sohasiga oid hujjatlar tasdiqlash haqida"gi buyrug'inинг 1 va 2-ilovalar tegishinchaligi tahrirda bayon etish belgilangan.

O'zgartirishlarga asosan 9-bob. "Adliya organlari va muassasalarini xodimlariga nisbatan xizmat tekshiruv o'tkazish tartibi" deb nomlanadi. Ushbu bob 100-banddan 141-bandlargacha o'z ichiga oladi.



O‘zbekiston Respublikasining Davlat Fuqarolik xizmati to‘g‘risida qonuni (Qonunchilik palatasi tomonidan 2022-yil 2-martda qabul qilingan Senat tomonidan 2022-yil 28-mayda ma‘qullangan) 49-modda. Xizmat tekshiruvi deb nomlanadi. Ushbu qonunga asosan.

Xizmat tekshiruvi mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda davlat organi rahbarining qaroriga ko‘ra o‘tkaziladi. Davlat fuqarolik xizmatchisi o‘ziga nisbatan asossiz ayblovlar qo‘yilgan yoki xulosalar chiqarilgan deb hisoblaganda ham uning yozma arizasi asosida xizmat tekshiruvidan o‘tkazilishi mumkin.

- 1. Xizmat tekshiruvi davomida quyidagilar aniqlanishi zarur:**
- 2. intizomiy qilmishga sabab bo‘lgan holatlar va shart-sharoitlar;**
- 3. davlat fuqarolik xizmatchisini intizomiy qilmishda ayblashning asosliligi yoki asossizligi;**
- 4. intizomiy qilmish natijasida yetkazilgan zararning o‘ziga xos xususiyati va miqdori;**

Davlat fuqarolik xizmatchisining tushuntirishlari va yozma ravishda bergan talablarida ko‘rsatilgan vajlar.

Davlat organidagi xizmat tekshiruvi davlat organining kadrlar bo‘linmasi, yuridik xizmati va boshqa bo‘linmalari, shuningdek kasaba uyushmasi (mavjud bo‘lgan taqdirda) vakillaridan iborat bo‘lgan xizmat tekshiruvini o‘tkazish bo‘yicha komissiya tomonidan o‘tkaziladi. Xizmat tekshiruvini o‘tkazish bo‘yicha komissiya tarkibiga davlat organining rahbari hamda xizmat tekshiruvi natijasidan manfaatdor bo‘lgan shaxslar kirishi mumkin emas.

Xizmat tekshiruvini o‘tkazish zarur bo‘lgan hollarda, davlat organining rahbari davlat fuqarolik xizmatchisini xizmat tekshiruvi o‘tkazish mobaynida xizmat majburiyatlarini bajarishdan uning o‘rtacha ish haqini saqlab qolgan holda vaqtincha chetlatish to‘g‘risida qaror qabul qilishi mumkin.

Xizmat tekshiruvini o‘tkazish muddati o‘n besh ish kunidan oshmasligi kerak. Davlat organining rahbari xizmat tekshiruvini o‘tkazish bo‘yicha komissiyaning asoslantirilgan vajlari asosida xizmat tekshiruvini o‘tkazish muddatini yana o‘n besh ish kunigacha uzaytirishga haqli.

O‘zbekiston Respublikasining Prokuratura to‘g‘risidagi Qonunining 46-moddasiga muvofiq. Prokuratura organlarining ichki xavfsizligini ta‘minlash bo‘linmasi O‘zbekiston Respublikasi Prokuraturasi tuzilmasida prokuratura organlarining ichki xavfsizligini ta‘minlash bo‘linmasi tuziladi.

Prokuratura organlarining ichki xavfsizligini ta‘minlash bo‘linmasi prokuratura organlari xodimlari tomonidan sodir etilgan xizmat mavqeini suiiste‘mol qilish, korrupsiya va egallab turgan lavozimiga noloyiq boshqa nojo‘ya xatti-harakatlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bo‘yicha xizmat tekshiruvlari o‘tkazadi, prokuratura organlarida ichki xavfsizlikni ta‘minlash sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar, Bosh prokuratura hay‘atining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyruqlari, farmoyishlari va ko‘rsatmalari so‘zsiz ijro etilishini ta‘minlaydi.

- 1. xizmat tekshiruvi nima sababli o‘tkazilayotganini bilishga;**
- 2. komissiya a‘zolarini rad etish to‘g‘risida arz qilishga;**
- 3. xizmat tekshiruvi masalalari bo‘yicha yozma tushuntirishlar berishga;**
- 4. xizmat tekshiruvi o‘tkazilishi davomida iltimosnomalar berishga;**



5. xizmat tekshiruvi materiallariga qo'shib qo'yish uchun hujjatlar, ashyoviy dalillar taqdim etishga;

6. guvohlarni xizmat tekshiruvi o'tkazilishi davomida keyinchalik ularni so'rovdan o'tkazish uchun taqdim etishga;

7. xizmat tekshiruvi materiallari bilan tanishishga, ulardan ko'chirmalar, ko'chirma nusxalar olishga;

8. xizmat tekshiruvi natijalari haqidagi dalolatnama bilan tanishishga;

Komissiyaning qarorlari va harakatlari (harakatsizligi) ustidan yakka tartibdagi mehnat nizolari uchun belgilangan tartibda shikoyat qilishga haqlidir.

Xodim o'z sha'ni va qadr-qimmatiga putur yetkazadigan ma'lumotni rad etish uchun xizmat tekshiruvi o'tkazilishini talab qilishga haqlidir. Xizmat tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi ariza ish beruvchiga yozma shaklda beriladi va u taqdim etilgan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmay ko'rib chiqiladi.

O'ziga nisbatan xizmat tekshiruvi o'tkazilayotgan xodim o'ziga berilgan huquqlardan vijdonan foydalanishi, xizmat tekshiruvi o'tkazilishiga monelik qilmasligi, shu jumladan xizmat tekshiruvida ishtirok etishdan bo'yin tovlamasligi, haqiqatni aniqlashga dalillarni yo'q qilish, soxtalashtirish, boshqa g'ayriqonuniy harakatlar sodir etish yo'li bilan monelik qilmasligi shart.

Xizmat tekshiruvi natijalari to'g'risidagi dalolatnama komissiya to'plagan boshqa materiallar bilan birga ish beruvchiga komissiya majlisida o'tkazilgan xizmat tekshiruvi haqida qaror qabul qilinganidan keyin uch (3) ish kunidan kechiktirmay topshirilishi kerak.

Mehnat kodeksimizda nazarda tutilgan xizmat tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi qoidalar ichki mehnat tartibi qoidalarida, ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishilgan holda qabul qilinadigan xizmat tekshiruvini o'tkazish tartibi haqidagi ichki hujjatlarda tarmoqning xususiyati, ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlari, xodimlar bajarayotgan mehnat vazifalarining tavsifi inobatga olingan holda aniqlashtirilishi mumkin.

Mehnat kodeksining birinchi qismida nazarda tutilgan ichki hujjatlar xodimning holatini ushbu Mehnat kodeksga nisbatan yomonlashtirmasligi kerak. Maxsus intizomiy javobgarlikka tortiladigan xodimlarga nisbatan xizmat tekshiruvi o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari qonunda, shuningdek intizom to'g'risidagi ustavlar va nizomlarda belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

6. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi hujjat 30.04.2023 sanasi holatiga XVIII bob 295-moddasi.

7. O'zbekiston Respublikasining Prokuratura to'g'risidagi Qonunining 46-moddasi.

8. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi hujjat 30.04.2023 sanasi holatiga XVIII bob birinchi qismi.